



UDK: 81'42(045)(575.1)

Sarvar AKOBIROVA,

Professor v.b., PhD, TSUL, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: s.akobirova@tsul.uz, <https://ORCID.org/0000-0003-2526-2835>

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD) I.T.Haydarov taqrizi asosida

PSYCHOLINGUISTIC ASPECTS OF MANIPULATION IN DIGITAL MEDIA TEXTS

Annotation

In the era of global digitalization, media texts have become the primary vehicle for political, social, and cultural influence, often employing hidden linguistic manipulation. This article analytically examines the psycholinguistic mechanisms of manipulation within modern English digital media texts. The study reveals specific lexical, syntactic, and semantic strategies used to influence public consciousness and alter cognitive perceptions. Special attention is paid to developing students' critical language awareness and linguistic immunity against cyber threats and media manipulation. The practical significance of the research lies in its pedagogical application for teaching media literacy and advanced discourse analysis in English philology classrooms.

Key words: Psycholinguistics, digital media text, linguistic manipulation, cognitive perception, language awareness, critical thinking, cyber threat, discourse analysis, English philology, linguistic immunity.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МАНИПУЛЯЦИИ В ЦИФРОВЫХ МЕДИАТЕКСТАХ

Аннотация

В эпоху глобальной цифровизации медиатексты стали основным средством политического, социального и культурного влияния, часто использующим скрытые лингвистические манипуляции. В данной статье аналитически рассматриваются психолингвистические механизмы манипулирования в современных англоязычных цифровых медиатекстах. Исследование раскрывает специфические лексические, синтаксические и семантические стратегии, используемые для воздействия на общественное сознание и изменения когнитивного восприятия. Особое внимание уделено развитию критического языкового сознания студентов и лингвистического иммунитета против киберугроз и медиаманипуляций. Практическая значимость исследования заключается в его педагогическом применении при обучении медиаграмотности и углубленному анализу дискурса на занятиях по английской филологии.

Ключевые слова: Психолингвистика, цифровой медиатекст, лингвистическая манипуляция, когнитивное восприятие, языковое сознание, критическое мышление, киберугроза, анализ дискурса, английская филология, лингвистический иммунитет.

RAQAMLI MEDIA-MATNLARDAGI MANIPULYATSIYANING PSIXOLINGVISTIK JIHATLARI

Annotatsiya

Global raqamlashtirish davrida media-matnlar yashirin lingvistik manipulyatsiyalarni qo'llagan holda siyosiy, ijtimoiy va madaniy ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasiga aylandi. Mazkur maqolada zamonaviy ingliz tilidagi raqamli media-matnlarda manipulyatsiya sodir etilishining psixolingvistik mexanizmlari tahliliy bayon etilgan. Tadqiqot ijtimoiy ong va kognitiv qabul qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatish uchun ishlatiladigan o'ziga xos leksik, sintaktik va semantik strategiyalarni ochib beradi. Maqolada kiber-tahdidlar va media-manipulyatsiyalarga qarshi talabalarning tanqidiy til ongini hamda lingvistik immunitetini rivojlantirish masalalariga alohida urg'u berilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati ingliz filologiyasi darslarida media savodxonlikni va diskurs tahlilini o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar: Psixolingvistika, raqamli media-matn, lingvistik manipulyatsiya, kognitiv qabul qilish, til ongi, tanqidiy fikrlash, kibertahdid, diskurs tahlili, ingliz filologiyasi, lingvistik immunitet.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillarni o'qitish metodikasi integratsiyalashgan fanlararo yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. XXI asr axborot va kiber-texnologiyalar asri bo'lib, unda til nafaqat aloqa vositasi, balki inson ongi, emotsiyalari va xulq-atvorini shakllantiruvchi yirik psixolingvistik instrument vazifasini o'tamoqda. Virtual makonda ingliz tilidagi global axborot oqimining kengayishi raqamli media-matnlarning tarkibiy qismlarini lingvistik va psixologik jihatdan chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Ayniqsa, global raqamlashtirish sharoitida xorijiy tillarni o'qitish va zamonaviy til pedagogikasi masalalari yangicha konseptual yondashuvlarni talab qilmoqda [1]. Bugun axborot olami ichida yashayotgan har bir shaxs kundalik hayotida yashirin semantik manipulyatsiyalarga duch kelmoqda, bu esa til egalarining va

chet tilini o'rganayotgan yoshlarning kognitiv xavfsizligiga bevosita daxldordir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni yot g'oyalardan himoya qilish masalasiga to'xtalib, shunday deganlar: "Bugungi kunda dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat, axborot qarama-qarshiligi va mafkuraviy xurujlar har qachongidan ham kuchayib bormoqda". Bunday murakkab g'oyaviy va axborot muhitida ingliz tili darslarida nafaqat lingvistik kompetensiyalarni, balki yuksak ma'naviy immunitet va tanqidiy fikrlash qobiliyatini (critical thinking) shakllantirish muhim pedagogik vazifadir. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va innovatsion ta'lim muhitini yaratish talabalarning raqamli savodxonligini oshirishni ko'zda tutadi [2]. Raqamli kiber-makonda

tarqatilayotgan turli axborot xurujlari ko'pincha yashirin ritorik va lingvistik usullar yordamida amalga oshiriladi, bu esa jamiyat ma'naviy asoslariga putur yetkazish xavfini tug'diradi.

O'zbekistonda huquqiy va ijtimoiy tizimlar qatorida oliy ta'lim makonini raqamlashtirish tendensiyalari talabalarda axborot xurujlariga qarshi kognitiv barqarorlikni shakllantirish zaruriyatini yanada oshirmoqda [3]. Mazkur tadqiqot mavzusining tanlanish asosi va dolzarbligi raqamli media-matnlardagi yashirin manipulyativ strategiyalarni fosh etishning samarali psixolingvistik modellarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga, xususan, filologiya yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitish metodikasiga tatbiq etish zarurati bilan belgilanadi. Oddiy ma'naviy tushunchalar bilan cheklanib qolmasdan, yuksak lingvistik va kognitiv barqarorlikni shakllantirish zamonaviy kiber-urushlar sharoitida talabalarni manipulyatsiya qurboniga aylanishdan asraydi. Shunga ko'ra, ushbu tadqiqotning maqsadi ingliz tili raqamli media-matnlardagi psixolingvistik manipulyatsiya mexanizmlarini aniqlash va ularni fosh etish orqali talabalarda kognitiv-metodik mudofaa tizimini shakllantirish prinsiplarini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Raqamli media-matnlarda lingvistik manipulyatsiya fenomeni va uning inson ongiga psixolingvistik ta'siri muammosi ham mahalliy, ham jahon tilshunosligida fundamental tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Matn orqali subyekt interpretatsiyasini o'zgartirish va til birliklarining suggestiv (ta'sirchan) imkoniyatlarini ochib berishda matn strukturasi va lisoniy diskurs qonuniyatlari alohida o'rin tutadi [4]. Matn shakllanishida muallifning yashirin niyati va lisoniy birliklarning sotsiolingvistik tabiatini tadqiq etishda, shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish metodikasida shakllantiruvchi baholash (formative assessment) tizimlarining lingvo-didaktik asoslarini hisobga olish lozim [5]. Xususan, atqali tilshunos olim A.Nurmonov o'z tadqiqotlarida tilning kognitiv va pragmatik funksiyalariga alohida to'xtalib, matn shakllanishida muallifning yashirin niyati va lisoniy birliklarning sotsiolingvistik tabiatini tadqiq etgan. Olimning til va ong aloqadorligi borasidagi konseptual qarashlari raqamli diskursda lingvistik manipulyatsiyani aniqlashning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, o'zbek psixolingvistikasi va matn tilshunosligi maktabining yetakchi vakili Sh.Safarov o'zining "Pragmalingvistika" va "Kognitiv tilshunoslik"ka oid fundamental asarlarida diskursning shakllanishi va qabul qilinishida inson omili, kognitiv tuzilmalar va lisoniy vositalarning o'zaro munosabatini chuqur tahlil qilgan. Til o'rganish amaliyotida lingvistik prinsiplar va topshiriqlarni tizimli baholash metodologiyasi talabalarning matnlarni mustaqil va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [6]. Sh.Safarov ta'kidlaganidek, har qanday matn ma'lum bir ijtimoiy-psixologik muhit mahsuli bo'lib, u tinglovchi yoki o'quvchi ongida reallikning subyektiv modelini yaratishga xizmat qiladi. Raqamli media muhitida esa bu jarayon maqsadli manipulyativ strategiyalar yordamida yanada murakkablashadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik iskalalar (scaffolding) va raqamli texnologiyalar integratsiyasi talabalarning kognitiv salohiyatini oshirishga yo'naltirilgandir [7]. Mahalliy tadqiqotchilardan M.Hakimov ham o'zining pragmalingvistik tadqiqotlarida matnning yashirin mazmuni (implikatura) va undagi lisoniy manipulyatsiya usullarini o'rganib, ommaviy axborot vositalarida til birliklarining emotsional-psixologik ta'sir kuchini ochib bergan. Raqamli makonda huquqiy ongli shakllantirish va innovatsiyalarni oliy ta'lim tizimiga kiritish tildan foydalanish etikasini tizimlashtirishga ham yordam beradi [8]. Xalqaro ilmiy paradigmadagi media-matnlarning manipulyativ xususiyatlarini va tanqidiy til ongini o'rganish bo'yicha eng nufuzli olimlardan biri Teun van Deyk (Teun A.

van Dijk) hisoblanadi. U o'zining "Tanqidiy diskurs tahlili" (Critical Discourse Analysis) konsepsiyasida ijtimoiy va siyosiy hokimiyat subyektlari tomonidan ommaviy axborot vositalarida til strukturasi (leksika, sintaksis, metaforalar) orqali jamoatchilik ongini qanday nazorat qilinishini mukammal isbotlab bergan. Van Deyk fikricha, media-matnlardagi manipulyatsiya – bu shunday axborot ta'siriki, unda qabul qiluvchi shaxs o'z ixtiyoriga qarshi ravishda manipulyator manfaatlariga mos keladigan kognitiv modellarni shakllantiradi. O'zbekiston chet tillarini o'qitish metodikasida talabalarning lisoniy dunyoqarashini va axborot immunitetini kengaytirishning nazariy hamda amaliy asoslari batafsil yoritilgan [9]. G'arb va jahon tilshunosligida matn tahlili va lingvistik manipulyatsiyaning psixologik jihatlarini tizimlashtirgan yana bir yirik olim – Norman Fairclough (Norman Fairclough) bo'lib, u til va jamiyat o'rtasidagi dialektik aloqani "til va hokimiyat" prizmasida tadqiq etgan. Kasbiy maqsadlarga yo'naltirilgan til o'rgatish jarayonida raqamli va mobil texnologiyalar yordamida axborot xurujlariga qarshi turish mexanizmlari bugungi metodikada alohida o'rin tutadi [10]. Uning "Kognitiv va ijtimoiy diskurs tahlili" modeli ingliz tili darslarida talabalarning tanqidiy fikrlash (critical thinking) va media savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasida muhim o'rin tutadi. Mahalliy va xalqaro adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli media-matnlarning ingliz tili ta'limi jarayonida tarkibiy o'rganilishi talabalarda nafaqat lingvistik, balki kognitiv-psixologik mudofaa va axborot immunitetini shakllantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli makonda axborot oqimlarining jadallashuvi til birliklarining manipulyativ funksiyalarini aniqlashda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Hozirgi vaqtda yangi tendensiya yangi yo'nalishni ko'rsatmoqda. Axborot tizimlariga qarshi qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri texnik hujumlardan ko'ra, jamiyatga qarshi harakatlarga, aniqlik, insonlar ongini va qarashlarini lisoniy vositalar yordamida o'zgartirishga, ya'ni ishortirishga qaratilgan g'oyaviy hujumlarga o'tmoqda. Natijada raqamli media-matnlardagi manipulyativ tashviqot va yashirin ritorik usullar kiber urushning muhim elementiga aylanib bormoqda. Til o'qitish amaliyotida interaktiv yondashuvlar va zamonaviy dars o'tish usullarini tizimli qo'llash talabalarda axborot interpretatsiyasini rivojlantirishning bosh mezonini hisoblanadi [11].

Ushbu tadqiqotda ingliz tilidagi raqamli media-matnlarning manipulyativ salohiyatini ochib berish va ularni ta'lim jarayonida fosh etish mexanizmlarini yaratish maqsadida fanlararo sifat (qualitative) tahlili metodlaridan foydalanildi. Izlanish davomida asosiy e'tibor an'anaviy grammatik tahlildan uzoqlashib, matnning yashirin mazmuni (implikatura) va undagi lisoniy manipulyatsiya strategiyalarini ochishga qaratildi. Nazariy tilshunoslik tushunchalari hamda maxsus diskurs tahlili qonuniyatlari raqamli axborot makonidagi yashirin ma'nolarni va semantik ko'chishlarni ochishda muhim lingvistik zamin hisoblanadi [12].

Tadqiqotni tashkil etishda quyidagi uslubiy yondashuvlar majmuasi qo'llanildi:

Tanqidiy diskursiv tahlil (Critical Discourse Analysis): Raqamli ommaviy axborot vositalari matnlarda qo'llanilgan so'z birliklari, leksik qatlam va sintaktik shakllar ortiga yashiringan mafkuraviy va ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini aniqlash uchun asosiy vosita sifatida xizmat qildi.

Konseptual va kontekstual tahlil: Ingliz tilidagi xabarlar tarkibidagi neytral so'zlarning emotsional-salbiy bo'yoqdorlik kasb etish jarayonlari hamda kontekst ta'sirida ma'no ko'chishi hodisalari o'rganildi.

Pragmalingvistik modellashtirish: Ingliz tili va filologiya yo'nalishi darslarida avtomatlashtirilgan matniy tahlillar hamda aqlli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning tanqidiy fikrlash (critical thinking) qobiliyatini oshirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi [13].

Tadqiqot materiali sifatida nufuzli ingliz tili raqamli nashrlar va ijtimoiy tarmoq platformalaridagi dolzarb ijtimoiy-siyosiy xabarlar hamda kiber-tahdidlarga oid matnlar tanlab olindi. Olingan natijalarning ilmiy asosliligi tanlab olingan matnlarning tilshunoslik qonuniyatlari doirasida chuqur qiyosiy-semantik tahlil qilinishi hamda ta'lim amaliyotida qo'llanilgan metodik modullarning samaradorligi tekshirilishi orqali ta'minlandi.

1-jadval. Raqamli media-matnlardagi manipulyativ usullar tahlili

№	Manipulyativ usullar (Methods)	Matndagi uchrash darajasi	Talabalar tomonidan fosh etilishi	Asosiy lisoniy vositalar
1	Semantik kontekstni bo'rttirish	42%	35%	Metaforalar, emotsional epitetlar
2	Agentivlikni (bajaruvchini) yashirish	28%	18%	Passive Voice, shaxssiz gaplar
3	Disfemizm va evfemizmlar qo'llanishi	18%	40%	Konseptual almashtirish
4	Ritorik presuppozitsiyalar	12%	15%	Yashirin mantiqiy taxminlar

Manba: O'tkazilgan diskurs tahlil natijalari asosida shakllantirildi.

Jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, raqamli media-matnlarda bajaruvchini yashirish (Passive Voice) va ritorik mantiqiy taxminlar (presuppozitsiya) qo'llanilganda talabalarining manipulyatsiyani fosh etish ko'rsatkichlari eng past (18% va 15%) natijani ko'rsatgan.

Xalqaro miqyosda, xususan, AQSh tajribasiga ko'ra, ertangi kiberxavfsizlik va kognitiv mudofaa yechimlarini yaratish uchun milliy kibertexnologiya va innovatsion bazadan samarali foydalanish talab etiladi. Hukumatlar bu bazani rivojlantirishi, ko'p milliard dollarlik venchur kapitali xarajatlari hamda ittifoqdosh sheriklar bilan hamkorlik asosida raqamli makondagi g'oyaviy xurujlarga qarshi lingvistik va texnologik mudofaa tizimlarini kuchaytirishi zarur. Ingliz tili filologiyasi darslarida bunday zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda media savodxonlikni o'qitish talabalarida axborot immunitetini shakllantirishning bosh omilidir.

Xulosa va takliflar. Raqamli media-matnlarning psixolingvistik va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda kiberkosmosning raqamli jang maydonlarida tahdid subyektlari ma'lum bir ustunlikka ega bo'lib, xalqaro miqyosda, xususan, AQSh federal idoralarning asosiy vazifalarini doimiy xavf

Tahlil va natijalar. Raqamli makondagi lingvistik diskurs tahlili shuni ko'rsatadiki, kiber arenadagi tashviqot va manipulyativ media-matnlar turli siyosiy kuchlar hamda hukumatlar tomonidan boshqa mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy yoki harbiy sharoitlariga ta'sir o'tkazishda haqiqiy urush quroli sifatida foydalanilayotganini isbotlaydi. Bunday sharoitda global axborot oqimining asosiy tili bo'lgan ingliz tilidagi media-matnlarning yashirin pragmatik mazmunini ochish va ulardagi g'oyaviy xurujlarni fosh etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqsadlar doirasida raqamli axborot muhitidagi manipulyativ usullar va ularning talabalar tomonidan filtrlanish darajasi maxsus ishlab chiqilgan model asosida o'rganildi:

ostida qoldirmoqda. Raqamli xurujlar va manipulyativ tashviqotlar nafaqat rasmiy ".gov" muhitini, balki davlat agentliklari xizmat ko'rsatadigan strategik infratuzilma, sanoat tarmoqlari va shaxslarning kognitiv xavfsizligini ham bevosita urmoqda. Bunday global tahdidlar sharoitida ommaviy axborot makonining yetakchi tili bo'lgan ingliz tilidagi manipulyativ media-matnlarni tahlil qilish davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlashning muhim bo'g'inidir.

Olingan natijalar asosida oliy ta'lim tizimida ingliz tili va filologiya yo'nalishi talabalarining kognitiv mudofaasini kuchaytirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi: Metodikani transformatsiya qilish: Ingliz tili darslarida an'anaviy grammatik matn tahlilidan bosqichma-bosqich voz kechib, talabalarda tanqidiy til ongini shakllantiruvchi pragmalingvistik va tanqidiy diskurs tahlil usullarini o'quv dasturlariga integratsiya qilish zarur.

Lisoniy immunitetni shakllantirish: Talabalarga raqamli ommaviy axborot vositalaridagi yashirin manipulyativ strategiyalarni (passiv konstruksiyalar, semantik kontekstni bo'rttirish, ritorik presuppozitsiyalar) mustaqil fosh etishga qaratilgan maxsus o'quv-metodik modullarni joriy etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

- Usarova, D. (2026). Enhancing student speech competence through artificial intelligence. Москва, 2, 3.
- Gulomov, S. S. Artificial Intelligence in Legal Education: Trends and Challenges. Tashkent: Science and Technology Publishing, 2023. 45-52-b.
- Rustambekov, I. R. Digitalization of Law and Legal Education in Uzbekistan. Journal of Legal Studies, Tashkent, 2024, No. 2, pp. 15–22.
- Syx, C. The Language of Case Precedent and Legal Discourse. London: Academic Press, 2022. 88-94-p.
- Khazratov, S. K., Usarov, A. Legal English Teaching Methodology and Formative Assessment Frameworks. Foreign Languages in Uzbekistan, 2023, Vol. 4, No. 1, pp. 60–67.
- Brown, H. D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. New York: Pearson Education, 2019. 210-215-p.
- Black, P., Wiliam, D. Classroom Assessment and pedagogical AI scaffolding. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 2021, Vol. 28, No. 3, pp. 142–158.
- Gulyamov, S. A., & Saidov, A. X. Digital Law and AI Integration in Higher Education. Tashkent: Adolat, 2023. 190-198-b.
- Jalolov, J. J. Chet til o'qitish metodikasi (Foreign Language Teaching Methodology). Toshkent: O'qituvchi, 2022. 312-318-b.
- Kukulska-Hulme, A. Mobile and AI-Assisted Language Learning for Professional Purposes. International Journal of Computer-Assisted Language Learning, 2024, Vol. 14, No. 2, pp. 45–59.
- Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2020. 105-112-p.
- Iriskulov, M. T. Theoretical Linguistics and Legal Translation Frameworks. Tashkent: Uzbekistan National University Press, 2021. 77-83-b.
- Hockly, N. Automated Writing Evaluation and AI Tutors in ESP Classrooms. English for Specific Purposes Journal, 2025, Vol. 71, pp. 114–125.